

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA TARBIYAVIY TADBIRLAR ORQALI
VATANGA MUHABBATNI SINGDIRISH.**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7568440>



ELSEVIER



Sheranova Maryam Bazarbayevna

Jizzax Davlat pedagogika universiteti
Umumiy pedagogika kafedrasida katta o'qituvchisi



Abstract: Ushbu maqolada Boshlang'ich sinflarda tarbiya darsi orqali vatanga sadoqat hissini, irodalilik, mafkuraviy immunitet, shuningdek ularning shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy, ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishi hamda mehr-oqibatlik, mas'uliyatlik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish, vatanga bo'lgan muhabbatini shakllantirish haqida so'z boradi.

Keywords: boshlang'ich sinf, o'quvchi, o'qituvchi, o'qitish, o'rgatish, shakllantirish, vatanga muhabbat.

About: FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

Received: 22-01-2023

Accepted: 22-01-2023

Published: 22-01-2023

2019-yil 31-dekabr "Uzliksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari haqida"gi 1059-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 -yil 6-iyul "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 422-sonli qarori qabul qilindi. "Tarbiya" darsligi "Odobnoma", "Vatan tuyg'usi", "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" hamda "Dunyo dinlari tarixi" fanlarini birlashtirdi. "Tarbiya" fani 1 - 9-sinflarda 2020/2021 o'quv yilidan, 10 – 11-sinflarda esa – 2021/2022 o'quv yilidan boshlab fanlarga ajratilgan umumiy soatlar doirasida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etildi.[1] Tarbiya fanining maqsadi darslik orqali o'quvchida bilim berishdan tashqari hayotiy ko'nikma shakllantiriladi va bosqichma-bosqich bolada maqsad qo'yish va unga intilish ko'nikmasini shakllantirib boradi.

Boshlang'ich sinflarda tarbiya darsi orqali vatanga sadoqat hissini, irodalilik, mafkuraviy immunitet, shuningdek ularning shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy, ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishi hamda mehr-oqibatlik, mas'uliyatlik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish va oshirish shu bilan birga ma'naviy tarbiyani amalga oshirishda o'z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat, atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni kamol topishida ota-ona, tarbiyachi, o'qituvchi muhim ahamiyat kasb etadi. Yoshlikda olingan bilim, toshga o'yilgan naqsh kabidir. Inson hayotining aynan yoshlik, bolalik davrida o'rganilgan har qanday bilim, ko'nikmalar u ulg'aygach erishgan barcha yutuqlarining kaliti bo'lib xizmat qiladi. Bolalik - kishi umrining ko'klam

davri, unda hayotning bo'lg'usi yillari uchun urug' ekiladi. Ulug' allomalarimiz tarbiyaga e'tibor qaratgani, "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir" degan Abdulla Avloniy. Ta'lim-tarbiya taraqqiyoti mamlakat ravnaqi va taqdiriga daxldor masaladir. Yurtning jadal rivojlanishi, xalqining farovon yashashi davlatdagi yoshlarning ta'lim-tarbiyasi, ularga yaratilayotgan sharoitlarga chambarchas bog'liq.

Ma'lumki, jamiyat taraqqiyotining har bir davrida o'ziga xos tarbiyalash, metodologiyasi va vositalari bo'lgan. O'tmish hayotimizga nazar tashlaydigan bo'lsak, avvalo ota-ona oilada ibrat namuna vazifasini bajargan, mahalla yoki aholining ma'lum hududidagi ziyoli va barkamol insonlar ham tarbiya sohasida salmoqli o'ringa ega bo'lgan. Ular: buyuk davlat arboblarmiz, donishmandlarimiz, xalq qahramonlarimiz, mutafakkirlarimiz va ular tomonidan yoki ishtiroki orqali shakllangan nazariya, ta'limot yoki mafkuralarimiz tarbiya shakllari va usullarini avloddan - avlodga o'tkazib kelishga muhim omillar hisoblanadi. Bulardan tashqari turli milliy marosimlar, urf-odatlar, an'analar orqali ham yosh avlodning keksa avlod udumlarini o'rganishga erishilgan. Hamma tarbiyalar ichida shaxs tarbiyasining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni beqiyosdir. Bualbatta ma'naviy-axloqiy tarbiya orqali amalga oshiriladi va u o'quvchilar ma'naviy dunyoqarashini kengaytirishga qaratilgan bo'ladi. Ta'lim oluvchilar ma'naviy axloqiy tarbiyasida o'ziga xos metodlar, shakllar va vositalar mavjud bo'lib, ular ushbu sohadagi faoliyat olib borishning samarasini belgilashda metodik asos bo'ladi

O'quvchilar ma'naviy ongiga ta'sir etuvchi metodlar: ma'naviy -axloqiy mavzudagi suhbatlar; hikoya; tushuntirish; namuna ko'rsatish; kishidagi ijobiy xislat va fazilatlarini insonning olijanoblighi ekanligiga ishontirish; bahs-munozaralar uyushtirish; uchrashuvlar qilish; tanlovlar o'tkazish; sahnaviy darslar o'tkazish; o'quv va yordamchi adabiyotlar bilan ishlash; matbuot konferensiyasini o'tkazish;

ma'naviy tarbiyaga oid multimediali tarbiya texnologiyalarini yaratish va amaliyotga joriy etish.

Ma'naviy xulqni shakllantirishga ta'sir etuvchi metodlar: kasbiy o'yinlar; ishchanlik o'yinlari; «Aqliy hujum»; fikr va g'oyalarnitizimlashtirish; bahs - munozara; musobaqa; devoriy gazeta chiqarish; ma'naviyatga oid albom va jurnal tayyorlash; axloqiy - muammoli vaziyatlar tahlili; tarbiyaviy (pedagogik) masalalar tuzib, uning yechimlarini tahlil qilish va shu kabilar.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash - millati, tili va kasbidan qat'i nazar, yoshlarda Vatanga sadoqat tuyg'usini shakllantirish, ularni o'z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan davlat organlari, jamoat birlashmalari va tashkilotlarining ko'p bosqichli, tizimli, maqsadli va muvofiqlashtirilgan faoliyatidir.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdan ko'zlangan asosiy maqsad - yoshlarda jamiyatning turli tarmoqlari, ayniqsa, harbiy soha bilan aloqador bo'lgan davlat xizmati turlarida faollik ko'rsatish, tinch va harbiy sharoitda Konstitutsiya va harbiy burchga sadoqatli bo'lish, ularda o'z yurti va xalqi taqdiri uchun yuksak mas'uliyat va javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakllantirishdan iborat.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda quyidagilar asosiy vazifalar etib belgilanadi:

yoshlarni milliy g'oya va O'zbekiston Respublikasiga, uning xalqi va Prezidentiga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharafligi va muqaddas burch ekanini chuqur singdirish;

qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo'lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo'lish tuyg'usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga bo'lgan ishonchni kuchaytirish;

milliy armiyamizga jismonan baquvvat va ma'nan yetuk yoshlar zarurligi, harbiy xizmat har bir O'zbekiston fuqarosi uchun muqaddas burch ekanini haqidagi tushuncha hamda bu boradagi nazariy-amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash;

yoshlarda yon-atrofimiz va jahonda ro'y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko'nikmalarini, turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish;

jangovar harakatlarga moslashish, har qanday murakkab vaziyatlarda tezkor va mustaqil qaror qabul qilish, zamonaviy harbiy texnika vositalaridan samarali foydalanish malakasiga ega yoshlarni tarbiyalash;

O'zbekiston manfaatlarini nafaqat harbiy sohada, balki hayotning barcha jabhalarida, har bir qadamda himoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoiy bo'lish - bu bugungi kun talabi ekanini hayotiy misollar va ta'sirchan vositalar bilan yoshlar ongiga singdirib borish.

Bolalarni maktabgacha yoshdan boshlab o'z ona shahri, milliy an'analarining o'ziga xos xususiyatlari haqida bilimlarni oshirish va uni kelajak avlodga yetkazish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri. Shuningdek, yaqinlar, qarindosh, yurtdoshlarga nisbatan mehr, saxiy munosabat, birovning qayg'usiga hamdardlik va rahm-shafqat va ular bilan ishlash tizimi oilada axloqiy va vatanparvarlik tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan eng dolzarb muammolarni hal etishning dolzarbligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashda vatanparvarlik tuyg'usi bolaning oilaga, unga eng yaqin odamlarga - onasi, otasi, bobosi, buvisi, aka-uka va opa-singillariga

munosabatidan boshlanadi. O'z uyiga muhabbat va mehrni o'zining asl ma'nosida rivojlanish vatanparvarlikning birinchi boshlang'ich bosqichi bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Yo'ldoshev J.G, Usmonov, S.A, Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish.-T. Fan va texnologiya. 2008.
2. Qayumova N.A O'qitishning axborot-ta'lim tizimi sharoiti va unda axborot kamunikatsiya texnologiyalari soxasi o'qituvchilarini tayorlash. Monografiya-T: "Fan va texnologiya", 2015
3. G'oziyev. E Jabborova. A "Faoliyat va xulq-atvor motivatsiyasi" T. 2003y
4. Bo'tayeva. H "Boshlangich sinf o'quvchilarida aqliy taraqqiyot shakllanishini